

## SUN'IY INTELLEKT ORQALI INGLIZ TILI O'RGANUVCHILARINING NUTQ KO'NIKMALARINI OSHIRISH

*Karimjon Erkinjonov,*

*“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o'quvchisi*

*Malika Kasimova,*

*“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi bosh o'qituvchisi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida*

*PhD mustaqil tadqiqotchi,*

**Annotatsiya:** Ingliz tilida ravon so'zlashish uchun grammatika va so'z boyligining o'zi yetarli emas. Xorijiy tilda ravon so'zlash uchun to'g'ri talaffuz qilish va muloqotda qobiliyatli bo'lish muhim. Buning uchun o'quvchilarga ingliz tili ustozlari yoki ingliz tilida gaplasha oladigan sherik kerak. Ammo ular doim yonimizda bo'la olmaydilar. Bu muammoning yechimi esa "Sun'iy intellekt" (SI)dir. Bugungi kunda SI ingliz tilini o'rganish ko'nikmalarini yaxshilash uchun bir qator imkoniyatlarni taqdim qilmoqda. Hususan, gapirish ko'nikmasini oshirish uchun bir qancha ilovalar va dasturlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarga og'zaki nutqlarini rivojlantirishda katta yordam bermoqda. Ushbu maqola sun'iy intellekt platformalarining nutq ko'nikmasiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, nutqning ravonligi va izchilligi, leksikasi va talaffuz masalalariga alohida e'tibor berilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, gapirish ko'nikmasi, ravonlik, talaffuz, SI dasturlari

### IMPROVING SPEAKING SKILLS OF ENGLISH LANGUAGE LEARNERS THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE

**Abstract:** Grammar and vocabulary alone are not enough to speak English fluently. In order to speak a foreign language fluently, it is important to have good pronunciation and communication skills. For this, students need an English teacher or a partner who can speak English. But they cannot be with us all the time. The solution to this problem is "Artificial Intelligence" (AI). Today, AI offers a number of opportunities to improve English language learning skills. In particular, there are several applications and programs for improving speaking skills, which are of great help to students in developing their speaking skills. This article focuses on the study of the impact of some artificial intelligence platforms on speaking skills, with special attention to the issues of speech fluency and coherence, lexis and pronunciation.

**Keywords:** artificial intelligence, speaking skills, fluency, pronunciation, AI platforms

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ У ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

**Аннотация:** Чтобы свободно говорить по-английски, одной грамматики и словарного запаса недостаточно. Для того чтобы свободно говорить на иностранном языке, важно иметь хорошее произношение и навыки общения. Для этого студентам нужен преподаватель английского или партнер, владеющий английским. Но они не могут быть с нами постоянно. Решением этой проблемы стал "искусственный интеллект" (ИИ). Сегодня ИИ предлагает ряд возможностей для улучшения навыков изучения английского языка. В частности, существует несколько приложений и программ для улучшения навыков говорения, которые оказывают большую помощь студентам в развитии их разговорных навыков. Данная статья посвящена исследованию влияния некоторых платформ искусственного интеллекта на навыки говорения, особое внимание уделяется вопросам беглости и связности речи, лексики и произношения.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, навыки говорения, беглость речи, произношение, платформы ИИ

Sun'iy intellektning zamonaviy ta'lim sohasiga kirib kelishi, u yoki bu sohani o'rganish uchun keng imkoniyatlarni ochdi. Xususan, til o'rganish sohasida SIning joriy etilishi, o'quvchilarga moslashuvchan va samarador o'rganish usullarini taqdim etdi. Bu esa til o'rganuvchilarga juda foydalidir.

Xorijiy tillarni o'rganishda SIning qo'llanilishi, an'anaviy yondashuvlardan ko'ra ancha farqli va qiziqarli bo'lgan shaxsiylashtirilgan ta'lim uslublariga yo'l ochdi. Sun'iy intellekt, o'quvchilarning o'rganish uslubi, nutqdagi muammolari va kuchli tomonlari haqida ma'lumotlarni tahlil qilish orqali har bir o'quvchiga moslashuvchan o'qitish uslubini taklif qiladi. Bu yondashuv orqali, har bir til o'rganuvchi uchun individual o'qitish strategiyasi ishlab chiqiladi, bu esa ularning o'rganish samaradorligini oshiradi. Xususan, til o'rganishda bu shaxsiylashtirish jarayoni, SI asosidagi dasturlar yordamida, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra kontentni va o'qitish uslublarini moslashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonlik til o'rganuvchi yosh o'quvchilar, boshqa ko'plab talabalar singari, real, kontekstga boy til amaliyoti yo'qligi sababli chet tilida nutq ko'nikmalarini egallashda ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ya'ni, ingliz tili ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitiluvchi ko'pgina davlatlarda "til egalari"ning yetishmasligi jonli muloqotga cheklovlar qo'yadi. SI orqali boshqartiluvchi chat botlar ushbu talabalar uchun lingvistik jihatdan mos keladigan real senariylar va suhbat simulyatsiyalarini taqdim etib, bu bo'shliqni to'ldiradi. Chatbotlar va ovozni aniqlash dasturlari kabi sun'iy intellekt vositalari talaffuz, grammatika va tildan foydalanish

bo'yicha tezkor fikr-mulohazalarni (feedback) taqdim etishi mumkin, bu esa yanada moslashtirilgan va samarali o'rganish tajribasiga imkon beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil nutq vazifalarini taklif qilishi mumkin - kundalik suhbatlardan to rasmiy dialoglargacha.

M. Pikhartning fikriga ko'ra SI algoritmlaridan foydalangan holda til o'rganish ilovalari talaffuz, grammatika va lug'atdan foydalanish bo'yicha tezkor fikr-mulohazalarni (feedback) taqdim etishi mumkin, bu esa o'quvchilarga real vaqtda xatolarni tuzatishga imkon beradi [1].

Til o'rganuvchilar turli dialoglarni SI Chat GPT4 yordamida bir muncha oson amalga oshirishlari mumkin. Masalan, kundalik suhbatlarni mashq qilish, talaffuzni yaxshilash, so'z boyligini oshirish yoki muayyan grammatik konstruksiyalar ustida ishlash. Bu restoranda ovqatga buyurtma berish, mehmonxonani bron qilish, ishga qabul jarayonidagi intervyuda qatnashish yoki do'stlar bilan tasodifiy suhbatni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu senariylar real hayotga mos bo'ib, til o'rganuvchilarga real til muhitini yaratishda yordam beradi. Chat GPT dan ushbu senariylar uchun dialoglar yoki maslahatlar yaratish uchun foydalanganda, masalan, "Mijoz va do'kon sotuvchisi o'rtasidagi suhbat" kabi senariyni kiritish va Chat GPT ning o'zi bilan suhbatlashish mumkin. Buning uchun foydalanuvchilar Chat GPT ga savollarga javoblarni berish uchun vazifalarni aniq ko'rsatishlari kerak.

SI chatbotlarining yana bir afzal tarafi shundaki, ular so'zlovchiga uning nutqi bo'yicha fikr-mulohazalarni bildiradi, ya'ni nutqni bir qancha tarafdin baholaydi. X. Huang va boshqalarning fikriga ko'ra SI tizimlari o'quvchilar nutqi bo'yicha darhol shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin, bu nutq mahoratini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lishlari bilan talaffuz, grammatika va lug'atdan foydalanish kabi jihatlarni tahlil qilib, kerakli tuzatishlar va nutqni rivojlantirish uchun takliflarni olishlari mumkin [2].

SI taklif etayotgan chatbotlar va dasturlarning ustunliklaridan yana biri bu o'quvchilarning xorijiy tilda so'zlashishga bo'lgan qo'rquvi va ishonchsizligini kamaytira olishidir. Bir qator tadqiqotlar SI vositalari til to'siqlari, nutqdagi ishonchsizlik va tashvishini kamaytirishda muhim rol o'ynashini aniqladilar [3]. Ushbu muhit an'anaviy sinfdagi muhitdan farqli o'laroq, o'quvchilarga gapirishni erkin mashq qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. Til to'siqlarini bartaraf etish, xavotir va ishonchsizlikni kamaytirish o'quvchilarning nutqiy vazifalarda ishtrok etishni osonlashtiradi va nutq mahoratini oshiradi.

### Xulosa

SI chatbotlari haqiqiy nutq amaliyotini rivojlantirishda yana bir innovatsion vositadir. Inson suhbatini taqlid qilish uchun dasturlashtirilgan ushbu chatbotlar o'quvchilarni muloqotga jalb etib ularga xavfsiz muhitda suhbatlashish imkonini beradi. SI vositalari xorijiy til o'qituvchilarining o'rnini bosa olmaydi, balki ularning

imkoniyatlarini oshirishga yordamlashadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til o'rganishda sun'iy intellektning samarali integratsiyasi o'quvchilarga mustaqil ravishda til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatdir. Maqsadli qo'llanilganda, SI vositalari nafaqat xorijiy tilni puxta o'zlashtirishni ta'minlashi, balki umumiy ta'lim maqsadlariga ijobiy hissa qo'shishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pikhart, M. (2020). Intelligent information processing for language education: The use of artificial intelligence in language learning apps. *Procedia Computer Science*, 176, 1412-1419.
2. Huang, X., Zou, D., Cheng, G., Chen, X., & Xie, H. (2023). Trends, research issues and applications of artificial intelligence in language education. *Educational Technology & Society*, 26(1), 112-131.
3. Khasawneh, M. A. S. (2023). Integrating Ai-Based Virtual Conversation Partners in Enhancing Speaking Skills In Foreign Languages: Insights From University Students. *Journal of Southwest Jiaotong University*, 58(5).
4. Kasimova, M. A. (2024). The Implementation of Artificial Intelligence in Teaching Foreign Languages. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(1), 71-79. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I1-11>